

11-mavzu: "Chorining qobiliyati"(Hikoya)

Darsning maqsadi:

a)ta'limiy: o`quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.

b)tarbiyaviy: o`quvchilarga har bir ishning o`z mashaqqati va mas'uliyati borligini tushuntirish, o`quvchilarni har bir insonga hurmat ruhida tarbiyalash.

c)rivojlantiruvchi: o`quvchilarning ifodali o`qish va qayta hikoyalash ko`nikma va malakalarini , mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish,"Klaster" usuli, savol-javob, "Topib o`qi!","O`yla,izla,top!" ta'limiy o`yinlari.

Dars jihozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism.

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma'naviyat daqiqasi o`tkazish.

II.Uy vazifasini so`rash va o`tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "Karim polvon" hikoyasini o`quvchilar ifodali o`qib, mazmunini qayta hikoyalab beradilar.

"Aqliy hujum" metodi.

- 1.Hikoya qahramoni kim?
- 2.Karim polvon otini uloq-ko`pkariga qanday tayyorladi?
- 3.U uloq-ko`pkarida g`olib bo`ldimi?
- 4.Qanday ot turlarini bilasiz?

III.Yangi mavzu bayoni.

Bugungi mavzu e'lon qilinadi: **"Chorining qobiliyati" hikoyasi**. Yangi mavzu o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

Lug'at ishi:

Aynan – xuddi o'zi, shunday

Turnir – musobaqa

"Chorining qobiliyati" hikoyasi o'quvchilarga zanjir usulida o'qitiladi.

Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Savollar:

1. Hikoyada "Chori oyog'ini sudrab uyiga qaytdi", deyilgan. Bu gapdan nimani angladingiz?
2. Hikoya qahramoni Choriga ta'rif bering.
3. Chori o'zini qaysi sohalarda sinab ko'rdi?
4. Chori izlayotgan savoliga javob topa oldimi?

"Topib o'qi" mashqi.

Hikoyadan Chorining xor jamoasida qatnashishga urinib ko'rganini va buning natijasini topib o'qing. **"Tinglang"** O'quvchilar musiqani tinglab, darslikda berilgan savol bo'yicha o'z fikrlarini bildiradilar.

"Tez aytish" musobaqasi o'tkaziladi.



**Tolib to'pni topib tepdi,
G'olib to'pni topib tepdi.**

"O`yla, izla ,top!" mashqi.

Bunda o`quvchilar darslikda berilgan qiziqarli savollarga javob beradilar.

Mashq daftari bilan ishlash.

1-topshiriq. Testlarni yeching.

1. Hikoya boshida Chori qayerda edi?

- ☒ A.O`zining bog`ida B.Maktabda
D.Ko`chada      E.O`zining uyida

2.Hikoyada aytilishicha, "Chori oyog`ini sudrab uyiga qaytdi". Bu uning qay holatda ekanini anglatadi?

- A.U raqsga tushishni xohlardi. ☒ B.U xafa edi.
D.U asabiy edi. E.U bog`bonlik qilishni xohlagan edi.

3.Chori ko`rib qolgan e`lon nima haqida edi?

- A.Futbol o`yini haqida
B.Bog`bonchilik guruhi haqida
D.Yozgi konsert haqida

☒ E.Qo`shiqchi guruh haqida

4.Kim ekan sabzavotlar so`lib, qurib qolar edi?

- A.Chori B.Davron ☒ D.Jamila E.Onasi

5. Hikoya so`ngida Jamila Choriga nimani anglashiga yordam berdi?

- ☒ A.U allaqachon nimadadir zo`r ekanligini      B.U futbolda eng zo`ri ekanini
D.Bog`bonlik qiyin ish ekanini      E.Do`stlari undan-da qobiliyatli ekanini

6. Nima uchun Chori do`stlarini uyiga taklif qildi?

- A.Yoz faslining tugashini nishonlash uchun

B. Hammalari qobiliyatli ekanliklarini nishonlash uchun

D. Futbol o`ynash uchun

E. Ularga bog`bonchilikni o`rgatish uchun

7. Yoz davomida Chori nimani xohladi?

A. Bog`da ko`proq ishlash B. Do`stlari bilan birga o`ynab-kulishni

D. Yangi joyni borib ko`rishni **E.** Nimaga qobiliyatli ekanligini bilib olishni

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Kim futbol turniriga tayyorlanayotgan edi?

Davron va uning futbol jamoasi futbol turniriga tayyorlanayotgan edi.

2. Yoz fasli uchun Jamilaning qanday rejalari bor edi?

Jamila xor jamoasi bilan katta konsertga tayyorlanayotgan edi.

3. Jamila bilan suhbatlashgandan keyin Chorining bog`bonlik haqidagi fikri o`zgardimi?

Yozni chopiq ishlari bilan shug`ullanib o`tkazish u uchun ahmoqona ishdek tuyuldi.

4. Davronning futbol jamoasini yaxshi deb aytish uchun qanday sabab bor?

Chunki uning futbol jamoasi turnirda yutdi.

3-topshiriq.

1. Chorining futbol o`yini paytida bajargan ikkita xatti-harakatini yozing.

Futbol o`yini paytida uning oyoqlari chalishib ketdi. Raqib jamoasi uchun gol urib qo`ydi.

2. Nima uchun hay`at a`zosining yuzi burishdi? Unga Chorining kuylashi yoqmadi.

3. Chori yangi mashg`ulotdan so`ng qanday ishlar qildi? Vaqtini o`zining bog`ida o`tkazar edi.

4-topshiriq. Hikoya qahramonlariga ta'rif bering.

Chori	
Davron	
Jamila	

V.Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash.

Savol-javob o'tkaziladi.

–Siz nimalarga qiziqasiz ?

–Hikoyadan qanday xulosa qildingiz?

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholab, rag'batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish.

Hikoyani ifodali o'qib,erkin gapirib berishga tayyorlanib kelish.

12-mavzu: "Hunarning hidi qanaqa?"(Janni Rodari)

Darsning maqsadi:

a)ta'limiy: o'quvchilarni she'r matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish,she'rni ifodali o'qishni o'rgatish.

b)tarbiyaviy: o'quvchilarga kasb-hunarning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish,kasb-hunar o'rganishga qiziqtirish, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish.

c)rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikma va malakalarini , mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish,"Aqliy hujum" metodi, savol-javob, ta'limiy o'yinlar.

Dars jihozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi: